O‘QITUVCHI-O‘QUVCHI ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK, AMALIY PARAMETRLARI

Safarova Rohatoy Gaybullayevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Milliy tarbiya, mutafakirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari yoritilgan. Pedagogik hamkorlikni takomillashtirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, metodologiya, amaliyot, o‘qituvchi, o‘quvchi, hamkorlik, pedagogika.

Аннотация. В статье раскрываются методологические и практические основы развития социометрических отношений между учителем и учащимися. Предложены рекомендации по совершенствованию педагогического взаимодействия.

Ключевые слова: социометрия, методология, практика, учитель, учащийся, сотрудничество, педагогика.

Abstract. The article reveals the methodological and practical foundations for developing sociometric relations between teachers and pupils. Recommendations for improving pedagogical cooperation are presented.

Keywords: sociometry, methodology, practice, teacher, student, cooperation, pedagogy.

O‘qituvchi - o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlar deganda sinf jamoasi ichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik yaqinlik, ishonch, o‘zaro bir-birini qabul qilinish, ta’sir, tanlov, hurmat va emotsional masofa kabi aloqalar tushuniladi. Bunday aloqalarning pedagogik tadqiqi o‘zining uzoq tarixiga ega. O‘qituvchi - o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlar tadqiqining tarixiy rivojlanish yo‘lini bir necha bosqichda bo‘lish mumkin.

Mazkur munosanatlar taraqqiyotining dastlabki bosqichi, o‘quvchilar guruhi orasidagi munosabatlarni o‘rganishdan boshlangan. Bunday tadqiqotlar dastlab psixologiyada, shaxslararo ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishdan boshlangan. O‘tgan XX asr boshlarida mutaxassislar sinf, jamoa, guruh ichida ayrim o‘quvchilar nega ko‘proq qabul

qilinishi, boshqalari esa chetda qolishini ilmiy jihatdan tushuntirishga harakat qilganlar. Olimlardagi mazkur qiziqish keyinchalik sotsiometriya metodining vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Sotsiometrik testlar dastlab, J. L. Moreno va uning hamkorlari ishlab chiqqan. Mazkur testlar o‘quvchilar guruhi orasidagi tanlov, yaqinlik hamda rad etilishga oid munosabatlarning ko‘lamini belgilashga qaratilgan edi.

Ikkinchi bosqich Moreno davri bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchi-o‘quvchi orasudagi sotsiometrik munosabatlarning ilmiy metodik jihatdan rivojlanish bosqichi amalga oshgan. O‘qituvchi-o‘quvchi orasudagi Sotsiometrik munosabatlarning tom ma’nodagi tadqiq etilish bosqichi taniqli psixolog Jacob Levy Moreno nomi bilan bog‘liq. U 1930-yillarda guruh ichidagi yashirin ijtimoiy aloqalarni aniqlash uchun sotsio- metriya va sotsiogramma usullarini taklif qilgan. Dastlab u qizlar tarbiya muassasalari, kichik guruhlar va bolalar jamoalarida “kim kimni tanlaydi?”, “kim bilan birga bo‘lishni xohlaysiz?” kabi savollar bilan murojaat qilgan va shu asosida ijtimoiy xarita tuzgan. Bu usullar keyinchalik pedagogikada ham qo‘llanilib, sinf jamoasi orasidagi munosabatlarni o‘rganishga tadbiq etildi. Moreno‘ning ishlari keyinchalik sotsiometriya guruh ichidagi ijtimoiy tuzilmani aniqlashning muhim yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan.

Sotsiometriyaning ta’lim jarayoniga tadbiq etilish bosqichi sinf jamoasini ijtimoiy tizim sifatida talqin etishdan boshlangan. Bu jarayonda sotsiometriya sinf jamoasini o‘rganish imkonini bereadigan pedagogik hodisa sifatida rivojlana boshladi. Manbalarda Moreno va uning izdoshlari bolalar sinflarida do‘stlik tanlovlari, guruhlashuv, chetlatilish va yetakchilik holatlarini xarita shaklida ifodalaganliklari haqida ma’lumotlar mavjud. Sotsiometriya doirasida o‘quvchilar sinfi faqat bilim beriladigan ijtimoiy-pedagogik birlikgina emas, ichki ijtimoiy tuzilishga ega bo‘lgan tizim sifatida namoyon bo‘la boshlagan. Bu davrda tadqiqotchi-pedagoglarning asosiy e’tibori o‘quvchi–o‘quvchi munosabatlariga qaratilgan bo‘lsa-da, o‘qituvchining sinfdagi markaziy mavqei sababli uning ham bu tizimga ta’siri alohida ahamiyat ahamiyat kasb etishi mutaxassislar tomonidan anglashila boshlandi.

Guruh dinamikasi bosqichida o‘qituvchining “ko‘rinmas” roli anglashila boshlangan. 1940-1960-yillarda guruh dinamikasi, ijtimoiy me’yor va jamoaviy xulq masalalari keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Sherif, Lewin kabi olimlarning ishlarida sinfdagi o‘quvchilar guruhi ichidagi me’yorlar, rollar va ijtimoiy ta’sirning shakllanishi yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarini aniqlashga yo‘naltirilmagan bo‘lsada, keyinchalik o‘qituvchini sinfdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi omil sifatida tushunishga asos yaratdi. Bu o‘z navbatida, sotsiometrik munosabatlarni faqat

o‘quvchilarning tanlovi asosidagina emas, balki o‘qituvchining sinfdagi muhitni shakllantirishi bilan bog’liq holda tadqiq etilgan.

Gumanistik va rivojlantiruvchi yondashuvlar ta’siri bosqichida ham o‘ziga xos bo‘lib, o‘tgan 20 - asrning 1960-1980- yillarida kelib ta’limda gumanistik yondashuvning tadbiq etilish ko‘lami kengaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi nazorat qiluvchi shaxs emas, balki o‘quvchilarni tushunuvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va ularning rivojlanishiga yordam beruvchi subyekt sifatida baholana boshlandi. Sotsiometrik munosabatlar ham faqat “tanlov” yoki “rad etilish” ko‘rsatkichlari bilan cheklanmay, ishonch, hurmat, emotsional yaqinlik, pedagogik qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rsatkichlar bilan boyidi. Ushbu davrdan boshlab tadqiqotlarda o‘qituvchi–o‘quvchi aloqasi sinfdagi muhitning xarakterini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Bu jarayon keyinchalik o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatini dolzarb ilmiy daraja sifatida talqin etish darajasiga ko‘tardi.

Zamonaviy ilmiy burilish bosqichi. O‘qituvchi - o‘quvchi munosabatlarini alohida tadqiqot sohasiga aylantirdi. O‘tgan 20- asrning 90-yillaridan boshlab o‘qituvchi–o‘quvchi munosabati mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida rivojlana boshladi. O‘qituvchi- o‘quvchi munosabatlariga oid yondashuvlar ko‘proq Robert Pianta nomi bilan bog’liq. Frontiers manbalarida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari bo‘yicha muhim burilish Pianta’ning 1992-yildan boshlab olib borgan tadqiqotlari va ayniqsa 2001-yilda e’lon qilingan qo‘llanmasi bilan ilmiy jamoatchilik orasida keng yoyildi. Shu davrdan boshlab munosabat sifati yaqinlik, ziddiyat va qaramlik kabi o‘lchamlar asosida chuqurroq o‘rganilgan. Endi sotsiometrik munosabat faqat guruh ichidagi tanlov emas, balki o‘quvchining o‘qituvchini qanday qabul qilishi, o‘qituvchi bilan aloqaning akademik va psixologik natijalarga qanday ta’sir qilishi bilan bog‘liq holda tahlil qilina boshlandi.

Bog‘lanish nazariyasining ta’siri bosqichi. Bu bosqichda o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilar uchun xavfsiz tayanch sifatida talqin etila boshlandi. Bunday yondashuv zamonaviy tadqiqotlarda o‘z ifodasini topdi. Frontiers va PMC manbalari o‘qituvchi - o‘quvchi munosabatlari sifatini o‘quvchining avvalgi ijtimoiy tajribasi, xavfsizlik hissi va sinfga moslashuvi bilan bog‘liq holda tahlil qilgan. Bunday yondashuvlar sotsiometrik munosabatlar psixologiyasini chuqurlashtirdi. Bu munosabatlar kim-kimni tanlaydi degan savol doirasidan chiqib, o‘quvchilarning maktab hayotiga psixologik moslashuvi va endi bu faqat kim kimni tanlaydi degan savol emas, balki o‘quvchining maktabdagi psixologik moslashuvi va o‘zini qanday his qilishi bilan yo‘nalish sifatida o‘rganila boshlandi.

XXI asr bosqichi. Bu ko‘p omilli va xalqaro tadqiqotlar davri sifatida namoyon bo‘ldi. XXI asrning boshlariga kelib o‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlarning tadqiqot doirasi kengaydi. Endi tadqiqotlar o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari sifatini nafaqat sinf ichidagi yaqinlik yoki ziddiyat orqali, balki akademik natija, maktabga tegishlilik hissi, emotsional farovonlik, xulq-atvor, bullying, inkluziya va madaniy farqlar bilan bog‘lab o‘rgana boshlashdi. Frontiers manbasida 2001-yildan keyin bu sohada turli davlat va mualliflar tomonidan tadqiqotlarning jadal tarzda ko‘payganligi, bugungi kunda esa madaniyatlararo solishtirma tadqiqotlar muhimlashgani qayd etiladi. Amerikadagi Psixologlar Assotsiatsiyada ham o‘qituvchi bilan ijobiy munosabatlar o‘quvchilarning akademik va ijtimoiy taraqqiyotiga uzoq muddat davomida ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlangan.

Zamonaviy bosqichda o‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlar sinfdagi ijtimoiy psixologik muhit va shaxslararo qadriyatli munosabatlar yo‘nalishida kengayib bormoqdaю Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar klassik sotsiometriyani inkor etmagan holda yangi paradigmada rivojlanmoqda. Klassik sotsiometriya asosan tanlov, o‘zaro bir- birini rad etish, pedagogik jarayon subyektining guruhdagi o‘rnini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy sotsiometriya nazariyasi o‘qituvchi - o‘quvchi munosabatlarining sifati, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhit, o‘zining sinf jamoasiga mansubligini his qilish, o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlash, osoyishtalik kabi parametrlarda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu parametrlar pedagogik sotsiometriya nazariyasini yangi sharoitda rivojlantirishni talab qilmoqda. Bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim: sinfdagi o‘quvchilar orasidagi tanlov imkoniyatlarini o‘lchash, sinf jamoasini xaritalash, o‘qituvchining ijtimoiy rolini baholash, emotsional va pedagogik yaqinlik darajasini belgilash, o‘qituvchi- o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabatlar sifatini tahlil qilish, sinf jamoasi orasida osoyishtalikni ta’minlash va ta’lim natijalarini aniqlashga yo‘naltirilgan kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish ehtiyoji mavjud. Bunday yondashuv natijasida zamonaviy pedagogik sotsiometriya nazariyasi klassik sotsiometriya bilan bog’lanadi va ular orasidagi vorisiylik ta’minlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchi - o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlar tadqiqi avval guruh ichidagi oddiy tanlov va rad etilish munosabatlarini aniqlashdan boshlangan. Keyin bu yondashuv o‘quvchilar jamoasiga tatbiq etilib, o‘qituvchining sinf ijtimoiy tuzilmasiga ta’siri anglashilgan. So‘ng gumanistik, rivojlantiruvchi va emotsional aloqalarga asoslangan yondashuvlar ta’sirida bu tadqiqotlar chuqurlashib, bugungi kunda mazkur tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda rivojlanib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muno-

sabat sifati, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhit hamda o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy-pedagogik osoyishtaligi bilan uzviy aloqadorlikka ega bo‘lmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, bu munosabatlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi o‘qituvchiga erkin murojaat qila olishi, o‘zini xavfsiz his qilishi, sinfda qadrlanishi, o‘qituvchi tomonidan tinglanishi, fikriga hurmat bilan qaralishi va o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini tan olishi kabilar. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, o‘qituvchi yordamini his qiladigan o‘quvchilar odatda yuqoriroq natija, kuchliroq maktabga tegishlilik hissi va pastroq xavotir darajasini namoyon etadi; Amerika psixologiya assotsatsiyasi ham o‘qituvchi o‘quvchi orasidagi ijobiy munosabatlarning o‘quvchining akademik hamda ijtimoiy taraqqiyotiga uzoq muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi.

Bu munosabatlarning asosiy manbai insonning ijtimoiy tabiati bilan bog‘liq. O‘quvchi maktabga faqatgina bilim olish uchun emas, balki guruh ichida o‘z o‘rnini topishi, tan olinishi, mansublik hissini tuyushi uchun ham kiradi. O‘qituvchi sinf jamoasiningasosiy subyekti bo‘lgani uchun ham u bilan o‘quvchilar orasidagi munosabatlar sinfdagi pedagogik psixologik muhitning xarakterini belgilaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va UNESCO hujjatlarida ham o‘qituvchi – o‘quvchi orasidagi ijobiy munosabatlar o‘quvchining osoyishtaligi, mansublik tuyg’usi va faol ishtirokiga kuchli ta’sir qilishi ko‘rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Moreno J.L. Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. - New York: Beacon House, 1934. - 441 p.

2. Pianta R.C. Student-Teacher Relationship Scale: Professional Manual. - Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 2001. - 98 p.

3. Lewin K. Field Theory in Social Science. - New York: Harper & Row, 1951. - 346 p.

4. Rogers C. Freedom to Learn. - Columbus: Charles Merrill Publishing Company, 1969. - 358 p.

5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.

6. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.